

Narsalarning asl mohiyatini bilishga olib boradigan yo'llar - hissiy anglash, rost xabar va aqldir.

Imom Moturidiy

# MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريديّة - Матуридизм



# MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريديّة - Матуридизм



## ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

**Музаффар КОМИЛОВ** – тарих фанлари номзоди, доцент

**Шайх Нуриддин ХОЛИҚНАЗАР** – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий

**Уйғун ҒАФУРОВ** – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

**Шоазим МИНОВАРОВ** – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори

**Давронбек МАХСУДОВ** – тарих фанлари доктори, профессор

**Зоҳиджон ИСЛОМОВ** – филология фанлари доктори, профессор

**Аҳаджон ҲАСАНОВ** – тарих фанлари доктори, профессор

**Шовосил ЗИЁДОВ** – тарих фанлари доктори, доцент

**Жамолиддин КАРИМОВ** – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

**Аҳмад Саъд ДАМАНҲУРИЙ** (أحمد سعد الدمنهوري) – илоҳиёт фанлари доктори

**Махмуд Эрол ҚИЛИЧ** (Mahmud Erol KILIÇ) – доктор, профессор, IRCICA Бош директори

**Назир Мухаммад АЙЁД** (نظیر محمد عیاد) – илоҳиёт фанлари доктори, Ал-Азҳар мажмуаси Ислом тадқиқотлари академияси Бош котиби

**Режеп ТУЗЖУ** (Recep Tuzcu) – илоҳиёт фанлари доктори, профессор, Салжук университети хузуридаги Имом Мотуридий тадқиқот маркази директори

**Аширбек МУМИНОВ** – тарих фанлари доктори, профессор, IRCICA Бош директорининг дастурлар бўйича маслаҳатчisi

**Камалуддин Нурдин МАРЖУНИ** (Kamaluddin Nurdin Marjuni) – илоҳиёт фанлари доктори, Малайзия ислом фанлари университети кафедра мудири

**Дониёр МУРАТОВ** – тарих фанлари номзоди, доцент

**Одил ЭРНАЗАРОВ** – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Ўзбекистон Республикаси Дин ишилари бўйича қўмитасининг 2023 йил 23 ноябрдаги 04-07/8931-сонли холосаси асосида тайёргланди.



**Муассис:**

**ЎЗБЕКИСТОН ҲАЛҚАРО ИСЛОМ  
АКАДЕМИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ  
ИМОМ МОТУРИДИЙ ҲАЛҚАРО  
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ**

**Бош муҳаррир:**  
**Жамолиддин Каримов,**  
*Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори*

**Муҳаррир ўринбосари:**  
**Зафар Фахриддинов,**  
*Исломчинослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори*

**Саҳифаловчи:**  
**Зарифжон Арслонов**

**Дизайнер:**  
**Зарифжон Гуломов**

«Мотуридийлик» журнали  
Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация  
комиссиясининг 2021 йил 30 декабрдаги  
310/10-сон қарори билан диссертация асосий илмий  
натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий  
нашрлар рўйхатига киритилган.

Журнал 2021 йил 12 декабря Ўзбекистон  
Республикаси Президенти Администрацияси  
хузуридаги Ахборот ва оммавий  
коммуникациялар агентлиги томонидан  
№1139 рақами билан рўйхатга олинган.

**Таҳририят манзили:**  
Тошкент шаҳар, Шайхонтоҳур тумани,  
Абдулла Қодирий кўчаси, 11-й.

**E-mail:** maturidijournal.uz  
**Web-sahifa:** info@moturidiy.uz  
Телефонлар: (+99871) 244-35-21,  
(+99871) 244-35-47

## МУНДАРИЖА

### ИСЛОМШУНОСЛИК

**Zohidjon Islamov.**

«Муқаддамату-л-адаб» арабча сўзлигининг матний таҳлили..... 5

**Ramil Adygamov.**

Междисциплинарные подходы в исследованиях истории богословия..... 13

**Zafar Fakhreddinov.**

«Вужух ва назоир» илмида ижод қилган олимлар ва унга оид асарлар таҳлили ..... 23

**Jurabek Chutmatov.**

Ҳаким Термизий тафсирининг илк нашри ..... 31

**Ahmadkhan Alimov.**

Абул Лайс тафсири манбалари ва муфассирнинг услублари..... 42

### ИСЛОМ ҲУҚУҚИ

**Azat Sarsenbaev, Nurulloh Turambetov.**

Бурҳониддин Марғинонийнинг «Ҳидоя» асарида Қуръондан ҳуқуқий манба сифатида  
фойдаланиш услуби ..... 51

**Muhammadnur Murodkhanov, Khaydarali Yunusov.**

Imom Saraxsiy – xalqaro huquqshunos olim..... 59

### ДИНШУНОСЛИК

**Nigora Yusupova.**

Ўзбекистонда давлат қурилиши дунёвийлик принципларига асосланишининг  
ҳуқуқий асослари ..... 65

**Odiljon Ernazarov.**

Shamsuddin Samarcandiying xristianlik haqidagi qarashlari ..... 74

**Jurabek Sodikov.**

«Ta’vilot ahl as-sunna»da keltirilgan noislomiy din va e’tiqodlarga oid ma'lumotlar tahlili ..... 80

**Shahzoda Abduraimova.**

Distribution of religious media contents on websites in Germany ..... 90

**Behzodbek Soipov.**

Жамият ижтимоий-сиёсий барқарорлигини таъминлашда бағрикенглик тамоилиининг  
аҳамияти ..... 96

### ИСЛОМ ТАРИХИ

**Sanabar Djurayeva.**

Toshkent viloyati ziyoratgohlarining tasnifi ..... 103

**Muhabbatkhan Agzamova.**

«Тарих ар-русул ва-л-мулук» асарининг тарихий жараёнларни тадрижий  
ёритишдаги аҳамияти ..... 108

**Lola Azimova.**

Марказий Осиё цивилизацияси ривожида илмий масканларнинг ўрни ..... 115

**Oybek Sotvoldiyev.**

«Ат-Табақот ал-кубро» асари – сийрат ва тарожимга оид манба сифатида ..... 122

**Zarifjon Arslonov.**

Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlarining ilmiy tasnifi va ularda ko‘tarilgan  
mavzular tahlili ..... 130

**ИСЛОМ МАНБАШУНОСЛИГИ**

**Doniyor Muratov.**

Арбайн жанри хусусида ..... 139

**Akmalkhan Akmalkhanov.**

«Miftoh al-ulum» asarida bir harfdan iborat yordamchi so‘zlar talqini ..... 148

**Dilfuza Sagdullaeva.**

Рабғузий ижодида оятларни қўллашнинг услугубий хусусиятлари ..... 156

**Feruza Nizamova.**

Dehlaviy ijodida badiiyat an’analari ..... 163

**Bahodirjon Azamov.**

Ҳаким Термизий «ал-Амсол мин ал-Китоб вас-сунна» асарининг  
манбашунослик таҳлили ..... 171

**Jurabek S. SODIKOV,**

*Senior Lecturer of the ICESCO Department for Islamic Studies and Study of Islamic Civilization, International Islamic Academy of Uzbekistan, (PhD).*

*E-mail: jurabeksodiq@gmail.com.*

*ORCID: 0000-0003-4100-5097*

**DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2023/4/10**

**«ТА'VILOT AHL AS-SUNNA»ДА  
KELTIRILGAN NOILOMIY DIN VA  
E'TIQODLARGA OID MA'LUMOTLAR  
TAHLILI**

**ANALYSIS OF INFORMATION ON NON-  
ISLAMIC RELIGIONS AND BELIEFS  
CONTAINED IN «TA'WILAT AHL  
AS-SUNNAH»**

**АНАЛИЗ ИНФОРМАЦИИ О  
НЕИСЛАМСКИХ РЕЛИГИЯХ И  
ВЕРОВАНИЯХ, СОДЕРЖАЩИХСЯ  
В «ТАВИЛАТ АХЛ АС-СУННА»**

**KIRISH**

Abu Mansur Moturidiyning bizgacha yetib kelgan ikki asari: «Ta'vilot ahl as-sunna» va «Kitob at-tavhid» turli sohalarga taalluqli bo'lsa ham, ularning har ikkisida asosiy e'tibor aqidaviy masalalar tahliliga qaratilgan. Jumladan, ulardag'i turli din va e'tiqodlar haqida keltirilgan ma'lumotlar ham ko'p jihatdan o'zaro muvofiq keladi. Faqat «Kitob at-tavhid» noislomiy e'tiqodlarga, «Ta'vilot ahl as-sunna»da bo'lsa islomiy firqalarga ko'proq ahamiyat qaratilgan. Shunga qaramay, har ikki asardagi boshqa e'tiqod va qarash egalari bilan ilmiy bahslarda qo'llanilgan dalillash hamda raddiya uslublari o'zaro muvofiq keladi. Shu omillar sabab ularning yagona manbara mansubligi yaqqol sezilib turadi.

Moturidiy tafsirini to'g'ri tushunishda uning yozilish uslubi va metodlarini yaxshi bilish muhim ahamiyatga ega. Olim biror-bir masalada o'z fikr-mulohazalarini bildirar ekan, albatta, ularga isbot sifatida naqliy ma'lumotlar, hissiy bilimlar yoki aqliy dalillarni keltiradi. Hech bir mavzuda asossiz so'z yuritmaydi. Allomaning dalillash va ishontira olish mahoratiga bugungi kun tadqiqotchilar ham yuqori baho berishadi. Tafsirda ba'zi olimlar ta'kidlaganidek, aqlga naqlga nisbatan ustunlik berilmagan. Aqliy dalillar odatda naqliy dalil mavjud bo'limgan holatda

yoki naqliy dalillarni quvvatlash uchun, shuningdek, mo'taziliylar va dahriylar kabi aqlni asosiy me'zon sanovchi e'tiqodlarga munosib raddiya berish maqsadida ishlatalig'an.

**ASOSIY QISM**

«Ta'vilot ahl as-sunna»da tilga olingen noislomiy din va e'tiqodiy ta'limotlar quyidagilardan iborat:

1. Ashobi taboe (أصحاب الطبائع) yoki «tabiatchilar» – bu e'tiqod vakillari olamning asosini to'rt unsur: yer, suv, olov va havodan tashkil topgan, deb hisoblashadi. Ba'zi manbalarda ushbu to'rt unsur: issiqlik, sovuqlik, quruqlik va namlik, deb ham ko'rsatilgan. Shuningdek, ular iloh tushunchasini rad etishadi hamda olamni azaliy va abadiy, deb bilihadi. Bu e'tiqod o'rta asrlarda qadimgi yunon falsafasining ta'siri natijasida islam dunyosiga ham kirib kelgan. Chunki, antik yunon faylasuflarining qarashlarida, xususan, Anaksimen ta'limotida xuddi shunday fikrlarni ko'rish mumkin (Gunnar Skirbekk, 2002: 28).

Ushbu e'tiqod vakillari haqida tafsirining ikki o'rniida: «Oli Imron» surasining 185-oyati va «Isro» surasi 12-oyati tafsirida so'z yuritilganini ko'rish mumkin. Jumladan, alloma «Oli Imron» surasining 185-oyatidagi «Har bir nafs (jon) o'limni totguvchidir» jumlasini tafsir qilar ekan, barcha odamlar o'limni yoqtirmasalar-da, unga duch kelishlari va insonlarda o'zi yoqtirmagan ko'plab xususiyatlar jamlanganini aytar ekan, bu holat ularni Yaratuvchi Zot borligiga dalolat qilishini ta'kidlaydi. Chunki, Moturidiyning fikriga ko'ra, agar olam ashobi taboe, ya'ni, tabiatchilar davo qilganidek azaliy va o'z holicha mavjud bo'lganida, har bir jonzot o'zi uchun eng lazzatli narsalarni ixtiyor etar va yoqtirmagan narsalaridan saqlanar edi (Moturidiy, 2005-2007:501-502). «Isro» surasining 12-oyati tafsirida esa mufassir ushbu oyatdagi: «Biz kecha va kunduzni ikki belgi (alomat) qildik», jumlesi tabiatchilarga qarshi dalil ekanini aytadi. Chunki, allomaning ta'kidlashicha, ularning almashinib turishi ma'lum o'ichov hamda qat'iy qonuniyatlariga tayanadi. Bu esa tabiiy jarayon emas va mazkur holat ularni yagona, boshqaruvchi Zot borligini ko'rsatadi (Moturidiy, 2005:238).

Ushbu ikki holatda ham ko'rish mumkinki, Moturidiy islomdan boshqa turli diniy-falsafiy ta'limotlardan ham yaxshi xabardor bo'lgan va ular bilan mantiqiy dalillash asosida, ya'ni, mazkur toifalarga mos uslubda bahs olib borgan.

**Annotatsiya.** Islomdagi firqalarning kelib chiqishiga islomdan boshqa din va e'tiqodlarning ham ta'siri katta bo'lgan. Shu bois Imom Moturidiy o'z tafsirida adashgan firqalar bilan bir qatorda islomdan boshqa turli diniy e'tiqod va falsafiy ta'limot vakillarining musulmon jamoalarini aqidasiga o'tkazgan ta'siri, shuningdek, ularning islomga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan qarashlariga ham batafsil to'xtalib o'tadi. Alloma biror e'tiqodiy masala muhokamasida, avvalo, qarshi tomonning aqida va qarashlarini hamda ularga asos bo'lgan dalillarini o'rganadi. So'ngra mazkur masaladagi islom e'tiqodi va dalillarini keltiradi. «Ta'vilot ahl as-sunna»da jami 16 ta islomdan boshqa dinlar va e'tiqodiy ta'limotlar haqida ma'lumot berilgan. Ular ichida ahli kitoblar, ya'ni yahudiylar va xristianlar hamda arab mushriklari, mulhidlar, sanaviylar, majusiyylar, dahriylar haqida ko'proq so'z yuritilgan. Bunga ularning Qur'oni karimda ko'p zikr etilgani, musulmonlarga yaqin hududlarda yashagani yoki Moturidiy davrida faollahgani sabab bo'lgan. «Ta'vilot ahl as-sunna»da keltirilgan ma'lumotlar kohinlik va rohiblikning ham mustaqil diniy e'tiqodlar bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, asarda bugun ko'pchilik sinonim sifatida qo'llaydigan mulhidlik va dahriylik tushunchalari o'rtaisdagi ba'zi farqlarni ham kuzatish mumkin. Ya'ni, dahriylikda olam azaliyligi va oxiratning inkori birlamchi o'rinda tursa, mulhidlikda iloh va din tushunchasini tan olmaslik yaqqol ko'zga tashlanadi. Maqolada «Ta'vilot ahl as-sunna»da uchraydigan turli din va e'tiqodiy ta'limotlarga birma-bir to'xtalib o'tiladi. Tafsirda ularning har biriga qay darajada e'tibor qaratilgani va bunga sabab bo'lgan omillar alohida-alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, ular haqida keltirilgan ma'lumotlarning mazmuni va ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Moturidiy, «Ta'vilot ahl as-sunna», tafsir, din, e'tiqod, dahriylik, ahli kitob, sanaviylar, majusiylik, iloh.

**Abstract.** Non-Islamic Religions and beliefs had a great influence on the origin of sects in Islam. Therefore, in his commentary, Imam Moturidi, in addition to the misguided factions, the influence of representatives of various religious beliefs and philosophical teachings on the non-islamic faith of Muslim communities, as well as their views that may raise doubts about Islam will be discussed in detail. Scholar, in the discussion of a religious issue, first of all examines the beliefs and views of the opposing side and the arguments on which they are based. Then he gives Islamic beliefs and evidences in this matter. In «Ta'wilat ahl as-sunna» information is given about 16 religions and religious teachings which were non Muslim. Among them, there is more talk about the people of the book, that is, Jews and Christians, as well as Arab polytheists, mulhids, thanawis, zoroastrians, and dahris. This was due to the fact that they were often mentioned in the Qur'an, lived in close areas to muslims, or became active during the Moturidi period. The information provided in «Ta'wilat ahl as-sunna» shows that priesthood and monkhood were also independent religious beliefs. It is also possible to observe some differences between the concepts of mulhid and dahri, which are used as synonyms by many people today. That is, while in dahriism, the denial of the eternity of the world and the end of the world is in the primary place, in Mulhidism, the non-recognition of the concept of God and religion is clearly visible. In the article, the different religions and religious teachings cited in «Ta'wilat ahl as-sunna» are discussed one by one. In the commentary, to what extent attention is paid to each of them and the factors that caused it are analyzed separately. Also, the content and importance of the information provided about them will be revealed.

**Keywords:** Maturidi, «Ta'wilat ahl as-sunna», commentary, religion, faith, dahri, people of the book, thanawiyah, majus, God.

**Аннотация.** Влияние чуждых религий и верований на возникновение сект и течений в исламе было огромным. Имам Матуриди в своем комментарии к священному Корану обсуждает влияние различных религиозных и философских учений, отличных от ислама, на веру мусульманских общин. Он подробно анализирует убеждения и взгляды этих учений, а также их аргументы, которые могут вызвать сомнения в исламе. Затем он представляет исламские убеждения и доказательства по этому вопросу. В его работе «Та'вилат ахл ас-сунна» рассматриваются 16 религий и религиозных учений, включая иудаизм, христианство, арабский политеизм, дуализм, язычество, атеизм, и другие. Это обусловлено тем, что эти учения часто упоминаются в Коране, их приверженцы живут в близлежащих мусульманских районах или они стали активными во времена Матуриди. Матуриди также в своей книге «Та'вилат ахл ас-сунна» отмечает, что шаманизм и монашество являются отдельными религиозными верованиями. Он также проводит дифференциацию между понятиями «мулхид» и «дахрия», которые в современном дискурсе часто трактуются как синонимы. В соответствии с первым термином, преобладает отрицание вечности мира и конечности вселенной, в то время как второй термин явно подразумевает отказ от признания концепции Бога и религии. В данной статье проводится комплексный анализ различных религий и религиозных учений, представленных в «Та'вилат ахл ас-сунна». Особое внимание уделяется интерпретации степени освещения каждого из них, а также выявлению факторов, которые могли повлиять на это. В дополнение к этому, осуществлено детальное изучение содержания и значимости информации, представленной о каждой из рассматриваемых религий.

**Ключевые слова:** Матуриди, «Та'вилат ахл ас-сунна», тафсир, религия, вера, атеизм, ахли китаб, санавия, маджус, Бог.

2. Ahli tanosux (أهل التناصح). Bu e'tiqodni tafsirning faqat bir o'rnida, «Yosin» surasi 31-oyati ta'vilda uchratish mumkin:

أَمْ يَرَوُ كُمْ أَهْلُكُمْ قَبْلَهُمْ مِنَ الْفُرُونَ أَتَهُمْ لَا يَرْجِعُونَ

«Axir ular o'zlaridan ilgari ham qancha asrlarni (avlodlarni) halok qilganimizni – o'shalar ularning oldiga (ya'ni bu dunyoga) qaytib kelmasliklarini ko'rmadilarmi?!» (Abdulaziz Mansur, 2018:442).

Ushbu oyatni sharhlar ekan Moturidiy quyidagilarni aytadi:

«... Bu oyat ahli tanosuxning: «Ruhlar bir qavmning badanlaridan chiqib boshqasiga kiradi», – degan so'zları botil ekanini ko'rsatadi. Chunki, Alloh taolo ularga raddiya sifatida: «Axir ular o'zlaridan ilgari ham qancha asrlarni (avlodlarni) halok qilganimizni va o'shalar ularning oldiga (ya'ni bu dunyoga) qaytib kelmasliklarini ko'rmadilarmi?!» – demoqda. Ular esa, bizlar ruhni ko'rmaganimiz holda, uni bir badandan chiqib boshqasiga kirishini aytadilar» (Moturidiy, 2005-2007:75).

«Ta'vilot ahl as-sunna»da ahli tanosux haqida shundan boshqa ma'lumot uchramaydi. Ma'lumki, ushbu e'tiqod tarixi qadimgi Hind zaminiga borib taqaladi va keyinchalik u boshqa xalqlar e'tiqodiy qarashlariga ham kirib borgan. Shu bois uni Abdulkarim Shahristoni (vaf. 1153-y.) o'zining «al-Milal va-n-nihal» asarida brahmanlik (البراهمة) dini tarkibidagi alohida e'tiqodiy yo'nalish sifatida keltiradi (Shahristoni, 2000:233-237), shuningdek, arab mushriklariga xos diniy tasavvurlar qatoriga ham qo'shami (Shahristoni, 2000:216-217).

Shahristonining keltirgan ma'lumotlardan tushunish mumkinki, Imom Moturidiy yuqoridagi oyatda hindlardagi tanosux aqidasiga raddiya bergen va bu bilan musulmonlar orasida ushbu e'tiqod tarqalishining oldini olishga intilgan. Chunki, o'sha davrda mavjud bo'lgan qadariylik va rofiziylilik kabi firqalarning ba'zi guruhlari orasida tanosuxga o'xshash aqidalar mavjud edi (Bag'dodiy, 1988: 235).

3. Brahmanlik (البراهمة). Qadimiy Hind dinlaridan bo'lgan ushbu ta'limot haqida tafsirning faqat bir o'rnida, ya'ni «Zuxruf» surasi 84-oyat tafsirida ma'lumot berilganini ko'rish mumkin. Mazkur o'rinda Moturidiy brahmanlik e'tiqodi vakillarining Alloh tomonidan payg'ambarlar yuborilishini inkor qilishlari hamda bu ishni hikmat va mantiqqa to'g'ri kelmaydi, deb hisoblashlarini aytgan. Keyin ularga aqliy dalillar asosida raddiyalar bergen (Moturidiy, 2005-2007:283).

Shahristoni ham brahmanlik haqida to'xtalar ekan, ulardagisi ushbu e'tiqodga, ya'ni risolat

masalasidagi fikrlariga e'tibor qaratadi (Shahristoni, 2000:233-234). Bu ma'lumotlardan o'sha paytlarda mazkur din vakillari va musulmonlar o'rtasida nubuvvat va risolat mavzusida bahslar bo'lib turganini tushunish mumkin.

4. Dahriylik (أهل الدهر، مذهب الدهر، دهري) (المذهب). Ushbu e'tiqodni Moturidiy tafsirining 23 o'rnida uchratish mumkin. Dahriylar olamning azaliyligi va yaratilmagani borasidagi ta'limotni ilgari suradilar hamda shu asosda Allohn, oxirat va o'limdan keyin qayta tirlishni inkor qiladilar (Moturidiy, 2011: 186-190), (Isfaroyiniy, 1983: 149). Bu e'tiqod johiliya arablari orasida ham keng tarqalgan edi. Mazkur ta'limotning bir qismi bo'lmish olamning azaliyligi borasidagi qarashlarning asoslari da'slab qadimgi yunon faylasuflari tomonidan ishlab chiqilgan (Gunnar Skirbekk, 2002:21-41) va ularning asarlaridan o'cta asrлardagi ba'zi islam faylasuflari ham ta'sirlanganlar (Shahristoni, 2000:149-210).

5. Zindiqlik (الزنادقة، مذهب الزنادقة) – tafsirda bu e'tiqod haqidagi ma'lumotlarni jami 5 o'rinda uchratish mumkin. Zindiqlik borasida manbalarda turli xil qarashlar keltirilgan. Xususan, ko'pchilik asarlarda zindiq atamasi zohirida o'zini musulmon sifatida ko'rsatsa-da, botinida o'zining eski dini va e'tiqodida qolgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Imom Molik va Imom Shofeiyning ham shunday deganlari rivoyat qilingan (Ahmad ibn Hanbal, 2003. – B. 58-59). Balki, shu boisdan turli din va e'tiqodlar haqida ma'lumot beruvchi ensiklopedik asarlar mualliflari, jumladan, Shahristoni va Mone ibn Hammod Juhaniylar zindiqlikn mustaqil e'tiqodiy yo'nalishlar safiga qo'shamaganlar. Lekin, Moturidiy o'z tafsiridagi barcha o'rnlarda zindiqlikn mustaqil, sanaviylikka o'xshash qo'shudolik dini sifatida tasvirlaydi (Moturidiy, 2005-2007:271.).

6. Kohinlik ( أصحاب كهانة، أهل كهانة). «Ta'vilot ahl as-sunna»da ushbu e'tiqod «An'om» surasi 76-79-oyatlar tafsirida 2 marotaba tilga olinganini ko'rish mumkin. Mazkur ikki o'rinda ham ular «ahl nujum», ya'ni «munajjima»lar bilan birga zikr etilgan va ularning osmon jismlariga sig'inishlari haqida so'z yuritilgan (Moturidiy, 2005-2007:118-119).

7. Majusiylik (المجوسيات ، المجوسية) – dualistik diniy ta'limot bo'lib, unga ko'ra olamda ikki iloh: ezgulik va yovuzlik xudolari bor deb e'tiqod qilinadi. Majusiyalar ta'limotiga ko'ra nur ezgulik va zulmat yovuzlik timsolidir. Bu ikki kuch doimiy kurash olib boradi va oxir-oqibat ezgulik g'alaba qozonadi hamda butun dunyo abadiy saodatga erishadi (Juhaniy, 1997:1149-1151).

وَلَئِنْ سَأَلْتُهُمْ مَنْ خَلَقَ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضَ لَيَشْوُلُنَّ اللَّهُ فِي الْحَمْدِ لِلَّهِ  
بَلْ أَكْثَرُهُمْ لَا يَعْلَمُونَ

Majusiylik Qur'on nozil bo'lgan paytda fors dunyosida keng tarqalgan e'tiqod bo'lib, uni Moturidiy tafsirining jami 24 o'rinda uchratish mumkin (Moturidiy, 2005-2007:239). Aksar olimlarning fikriga ko'ra bu diniy ta'limot zamonaviy dinshunoslikda zardushtiylik va otashparastlik nomlari bilan ataladi.

8. **Mulhidlik** (المُحْدِّنُونَ، المُلَحدَةُ، الْمُلَاهِدَةُ، أَهْلُ الْإِلْهَادِ).

Moturidiy o'z tafsirida bu e'tiqod haqida 28 o'rinda so'z yuritganini ko'rish mumkin. Mulhidlik tushunchasi dinsizlik va xudosizlikni, ya'ni ateizmni ifoda qiladi. Uning alohida e'tiqod sifatida qayd etilganiga sabab u dahriylik e'tiqodidan farqli jihatlarga ega.

9. **Munajjima** (منجمة، أصحاب النجوم). Ushbu yulduzlarga sig'inuvchilar e'tiqodi tafsirda jami 5 marotaba: «as'hob an-nujum» nomi ostida 2 o'rinda va «munajjima» shaklida 3 o'rinda tilga olinganini ko'rish mumkin. Jumladan, Moturidiy «Voqea» surasi 82-oyat tafsirida ular haqida shunday deydi:

«... Munajjima e'tiqodiga ko'ra: «Yulduzlar olamni boshqaradi va rizqlarini taqsimlaydi». Shu tariqa ular mazkur narsalardagi boshqaruvni Allohga nisbat berishmaydi» (Moturidiy, 2005-2007:323).

Alloma «Kitob at-tavhid»da ham munajjima e'tiqodi haqida xuddi shunday ma'lumot bergen (Moturidiy, 2011:212). Shuningdek, alloma «An'om» surasi 85-89-oyatlarda kelgan Ibrohim (a.s.) haqidagi voqea tafsilotiga to'xtalar ekan, u zot (a.s.)ning qavmi munajjima va kohinlik e'tiqodida bo'lganligini aytadi (Moturidiy, 2005-2007:118).

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Moturidiy boshqa olimlardan farqli ravishda munajjimalarni alohida e'tiqod sifatida qayd etgan. Chunki, boshqa mualliflarning asarlarida ushbu e'tiqodga «as'hob ar-ruhoniyat» yoki sobiiylik ta'limotining bir bo'lagi sifatida qaralgan (Shahristoniy, 2000:10).

**مشركو العرب، المشركون،** (10. Arab mushrikleri) مشرکو مکة، مشرکو اهل مکة، مذہب الشرک، عباد مشرکو، مشرکو اهل الشرک، مذهب الشرک، عباد – (الأصنام، عبد الأوّثان) – arab mushrikleri e'tiqodi alohida diniy yo'naliş sifatida kiritilgan. Chunki, bu e'tiqod mukammal ta'limot sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, boshqa dinlardan farq qiluvchi alohida xususiyatlarga ega bo'lgan. Xususan, ular Allohni olamni Yaratuvchisi sifatida tan olsalar ham, boshqa turli ilohlarga ibodat qilar hamda ularni Alloh va o'zları o'rtasidagi vositachi deb bilardilar (Hasanov, 2001:180-199.).

Islomgacha bo'lgan davrda arablar orasida keng tarqalgan ushbu e'tiqodni «Ta'vilot ahl as-sunna»da yuqoridagi ko'rinishlarda jami 64 o'rinda uchratish mumkin. Qur'oni karim arab mushrikleri orasida nozil qilingani sabab, ular haqida juda ko'p o'rirlarda so'z yuritilgan. Jumladan, «Luqmon» surasi 25-oyat tafsirida arab mushrikleri haqida shunday deyiladi:

«Qasamki, agar ulardan: «Osmonlar va Yerni kim yaratgan?» – deb so'rasangiz, albatta, «Alloh», – derlar. Siz «Allohga – hamd!» – deng! Yo'q, ularning aksariyati (haqiqatni) bilmalar» (Abdulaziz Mansur, 2018:413).

«Yo'q, ularning aksariyati (haqiqatni) bilmalar», – ya'ni, sanamlarga ibodat qilishlari ularni Alloh taologa zarracha yaqinlashtirmasligini va mazkur sanamlar ularni shafoat qila olmasligini bilmaydilar. Chunki, ular Alloh taologa yaqinroq darajaga yetishish umidida butlarga ibodat qilar va ularni Allohnинг huzurida o'zları uchun shafoatchi bo'lishini istar edilar. Bu haqda oyati karimalarda ham aytildi: «Ana shular Alloh huzurida bizni shafoat qiluvchilarimiz» (Yunus: 18), «Biz faqat ularga bizni Allohga yaqin qilishlari uchungina ibodat qilurmiz» (Zumar: 3). Ya'ni, ular (o'zlarining shunday yolg'on da'volariga ishonganlari sabab) dunyoda qilib o'tgan amallariga oxiratda jazo berilishini bilmaydilar» (Moturidiy, 2005-2007:247).

Tabariy va Ibn Kasir ham o'z tafsirlarida ushbu oyatda arab mushrikleri haqida so'z yuritilganini aytganlar (Tabariy, 1994). Keltirilgan misollardan shuni ko'rish mumkinki, arab mushrikleri e'tiqodi o'z davridagi boshqa ko'pxudolik dinlaridan farq qilgan. Ya'ni, ular islam arafasida yakkaxudolik va ko'pxudolik o'rtasidagi o'ziga xos ta'limotga ega bo'lganlar.

**النصراني، النصرانية، أهل الإنجيل،** (11. Xristianlik, أهل الكتاب، قوم عيسى، أهل البيع أهل الكتاب) (الكتابي) va «kitobiyot» (الكتابيات) (ahel al-kitab) (ahel al-kutub) (ahel al-kutub as-salafe) (ahel al-kutub al-mutaqaddima) nomlari ostida jami 148 o'rinda qayd etilganini ko'rish mumkin.

«Hud» surasi 17-oyat tafsirida «Iso (a.s.) hamrohlari» (أصحاب عيسى) haqida ham so'z yuritiladi (Moturidiy, 2005-2007:145). Lekin, bu bilan barcha xristianlar emas, balki, Iso (a.s.)ga imon keltirgan va hamrohlik qilgan guruh nazarda utilgan. Shu bois bu nom tafsirdagi xristianlikni ifodalovchi iboralar qatoriga kiritilmadi. Chunki, islam ta'limotiga ko'ra Iso Masih (a.s.)ning ilk davrdagi va hozirgi izdoshlari e'tiqodi bir-biridan katta farq qiladi. Ya'ni, Iso (a.s.) olib kelgan va hamrohlariga yetkazgan ta'limot hamda Injil bugungi kunda katta o'zgarishlarga uchragan, deb hisoblanadi. Balki, shu boisdir «Ta'vilot ahl as-sunna»da ushbu din vakillariga nisbatan

«masihiyilar», ya’ni Iso Masihnинг izdoshlari iborasi qo’llanilmagan. Holbuki, bugungi kunda xristianlikni masihiylik nomi bilan atash tez-tez ko‘zga tashlanadi. Zamonaviy olimlardan biri Abdulqodir Shayba bu haqda quyidagilarni aytadi:

«Masihiylik iborasiga kelsak, u ham Iso Masih (a.s.) izdoshlariga nisbatan qo’llaniladi. Uni bugungi kundagi xristianlarga nisbatan qo’llamaslik kerak. Chunki, ular voqelikda Masih (a.s.)ga ergashmayaptilar. Shu bois, na Alloh taoloning Kitobida va na Rasululloh (s.a.v.)ning sunnatlarida ularni masihiyalar, deb atalganini uchratmaymiz. Qur’oni karimda ular nasorolar, shuningdek, ahli kitoblar va ahli Injil kabi nomlar bilan atalgan» (Ahmad Shibliy, 2002:132-170), (Abdulqodir Shayba, 2011:35).

12. Rohiblik (الرهبانية). Ushbu e’tiqodni tafsirning faqat bir o’rnida uchratish mumkin. Mufassir mazkur e’tiqodni xristianlikdagi rohiblikdan alohida ta’limot sifatida qayd etadi. Olim «Haj» surasi 40-oyat tafsirida mazkur oyatda zikr etilgan turli din vakillariga tegishli ibodatxonalar haqida so‘z yuritar ekan («بع») biya’ xristianlarga yoki xristian rohiblariga, («صوامع») savome’ esa rohiblikka tegishli ekani to‘g’risidagi rivoyatlarni keltiradi (Moturidiy, 2005-2007:385-386). Ya’ni, Moturidiy rohiblik va xristian rohibligini bir-biridan ajratadi, lekin shu bilan birga na ushbu tafsirning o‘zida va na «Kitob at-tavhid»ning biror o’rnida rohiblik (الرهبانية)ning e’tiqodiy qarashlari haqida ma’lumot bermaydi.

13. Sanaviylik – bu ta’limot tafsirda jami 25 marotaba (التسوية) tilga olinganini ko‘rish mumkin. Shahristoniy sanaviylik e’tiqodiga to‘xtalar ekan, uning moniylik, mazdakiylik, daysoniya va marqiyuniya kabi shakllarini ajratib ko‘rsatadi (Shahristoniy, 2000:209). Moturidiy ham «Kitob at-tavhid»da sanaviylikning mazkur turlariga batafsil to‘xtalib o‘tgan (Moturidiy, 2011:226-242). Lekin, alloma o‘z tafsirida ularni umumiyy «sanaviya» nomi ostida keltiradi. Shuningdek, asosan, ularning qo’shudolik e’tiqodiga, qayta tirilishni inkor qilishlariga hamda nur va zulmat borasidagi qarashlariga qisman to‘xtalib o‘tadi. «Nahl» surasi 5-7-oyatlar, ya’ni, chorva hayvonlarida insonlar uchun go‘shtidan yeyish va minib safar qilish kabi manfaatlar borligi haqidagi so‘z ketgan jumlalar tafsirida bo‘lsa Moturidiy sanaviylikka tegishli qiziq bir ma’lumotga to‘xtaladi

«Bu (ya’ni, yuqoridagi oyatlar) sanaviylarning ushbu narsalarni so‘yishga qarshi aytgan so‘zlarini inkor etadi. Ular aytadilarki: «Hayvonlar ham sizlar kabi urish, so‘yish va o‘ldirish orqali ozorlanadilar. Agar, sizlardan biringiz boshqasiga qasd qilsa, uni

aqlsiz va hikmatsiz kishiga chiqarasiz. Berahmlik, bag‘ritoshlik va ahmoqlikda ayblaysiz. Alloh taolo ham hikmat, mehr va rahmdillik bilan sifatlangan. Shu bois, U Zot hayvonlarni so‘yish va o‘ldirishga buyurishi nojoizdir. Aks holda, rahmdillik va ilohiy hikmat o‘z mazmunini yo‘qotadi» (Moturidiy, 2005-2007:76).

Bundan tushunish mumkinki, sanaviylar vegetarian bo‘lishgan. Shahristoniy sanaviylikka mansub firqalardan faqat «siyomiya» e’tiqodida so‘yilgan narsalar va nikohdan saqlanish mavjudligini aytadi (Shahristoniy, 2000:217). Sanaviylarning yuqoridagi savoliga javob sifatida Moturidiy insonlarning imtihon uchun yaratilgani va amallariga yarasha savob yoki jazo olishini, hayvonlarning yaratilishidan maqsad esa bunday emasligi, balki ularning vazifasi insonlarning manfaatlariga xizmat qilish ekanini aytib o‘tgan (Moturidiy, 2005-2007:76-77.).

14. Sobiiylik (الصلابون). «Ta’vilot ahl as-sunna»da ushbu e’tiqod haqida 2 o‘rinda: «Baqara» surasi 62-oyat va «Hijr» surasi 44-oyat tafsirida ma’lumot berilgan. Jumladan, «Baqara» surasi 62-oyat tafsirida sobiylar haqidagi besh xil qarash keltiriladi. Ular quyidagilar:

- 1) Farishtalarga sig‘inib, zabur o‘qiydiganlar.
- 2) Osmon jismlariga sig‘inuvchilar.
- 3) Majusiylar va xristianlar o‘rtasidagi qavm.
- 4) Yahudiylar va majusiylar o‘rtasidagi qavm.
- 5) Zindiqlar mazhabiga ergashgan va Xudoni ikkita deb biluvchilar (Moturidiy, 2005-2007:147).

Lekin, Moturidiy bu qarashlarning hech biriga yon bosmaydi va tasdiqlamaydi. O‘zining bu munosabatini ular haqida aniq ma’lumot yetib kelmagani bilan izohlaydi. Sobiylar tilga olingan ikkinchi oyat tafsirida esa ular faqat adashgan e’tiqodlar safida zikr etiladi (Moturidiy, 2005-2007:36).

Hasan ibn Muso aytadi: «Ular olam haqida ixtilof qilgan qavmdir. Ularning ilk vakillari birlamchi modda (materiya) va Yaratuvchining azaliyligini aytishadi. Boshqalari esa olam keyin vujudga kelgan va uni yaratgan Zot esa azaliy, deb bilishadi. Ular Yaratuvchini olamdagи hech kimga o‘xshamaydigan, johil bo‘lmagan hakim, ojiz qolmaydigan darajada qudratli, baxillik qilmaydigan darajada oliyjanob, deya ta’riflashadi. Ularning aytishicha: «Yaratuvchi falakni tirik, so‘zlovchi, eshituvchi va ko‘rvuvchi qilib bunyod etgan. Shu bois falak bu dunyodagi bor narsalarni boshqaradi». Ular samo (falak)dagi sayyoralarini farishtalar, deb atashadi va ularga ibodat qilishadi...» (Same’ Dug‘aym, 1998:679.).

Ushbu ma’lumot sobiylarning osmon jismlari va farishtalarga sig‘inishlarining sabablarini ochib

beradi. Shuningdek, u sobiiylikda yakkaxudolik unsurlari ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu jihatdan u haniflik e’tiqodiga ham o‘xshab ketadi. Shu bois Shahristoniy sobiiylik haqida to‘xtalar ekan, uni haniflik ta’limoti bilan o‘zaro solishtiradi, ular o‘rtasidagi o‘xhash va farqli jihatlarni ko‘rsatib beradi (Shahristoniy, 2000:11-41).

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, Moturidiy o‘z tafsirida keltirgani kabi, sobiiylarning e’tiqodi haqida turli xil qarashlar shakllangan.

15. Haniflik – Islomgacha Arabistonda qabila xudolariga sig‘inishni rad etgan, zohid, yakka-xudolikka astoyidil ishongan, lekin xristianlikka ham, yahudiylikka ham e’tiqod qilmagan va Ibrohim(a.s.)-ning dinida ekanini da‘vo qilgan odamlar hanif deb atalgan. Qur’onda Ibrohim (a.s) ham hanif deb nomlangan (Islom ensiklopediyasi, 2004:97). Bu e’tiqod haqida tafsirning faqat bir o‘rnida, «Baqara» surasi 136-oyat tafsirida ma’lumot berilganini ko‘rish mumkin. Unda mufassir quyidagilarni aytadi:

«Haniflik borasida ixtilof mavjud. Hanif – bu musulmon, deb aytigan. Uni hoji ham deyishgan. Ba’zilar: «Agar hanif so‘zi ortidan muslim so‘zi zikr etilsa, o‘shanda bu ibora hojini anglatadi. Agar undan keyin muslim so‘zi kelmasa u oddiy musulmon hisoblanadi», – deb aytganlar. Shuningdek, hanif – haq yo‘lga va islomga moyil inson, degan qarash ham mavjud» (Moturidiy, 2005-2007:253).

Mufassir keltirgan bu qarashlar ichida faqat oxirgisi haniflik e’tiqodini qisman ifoda etadi. Lekin, uning o‘zi bu qarashlarning hech biriga yon bosmaydi. Moturidiyning bunday munosabatiga, ehtimol, «hanif» so‘zining jumla mazmuniga mos ravishda turli xil ma’nolarda qo‘llanishi sabab bo‘lgandir. Bunga misol sifatida quyidagi holatlarni keltirish mumkin:

«Baqara» surasi 135-oyat tafsirida «hanif» so‘zi Ibrohim (a.s.)ning e’tiqodi sifatida tilga olinadi va mazkur holatda Moturidiy uni «ixlosli musulmon», deya izohlaydi (Moturidiy, 2005-2007:252).

«Rum» surasi 30-oyat tafsirida «ad-diyn al-hanif» (الدين الحنيف) iborasi ham zikr etilgan bo‘lib, bu ibora orqali haniflik e’tiqodi emas, balki islom dini nazarda tutilgan. Chunki, ushbu o‘rinda «hanif» so‘zi din so‘ziga sifat bo‘lib kelgan va ular birgalikda «haqqoniy din» ma’nosini anglatadi. Bu iborani barcha musulmon olimlar islom diniga nisbatan qo‘llashadi va mazkur o‘rinda Imom Moturidiy ham uni ayni shu ma’noda ishlatgan (Moturidiy, 2005-2007:187.).

16. Yahudiylik (اليهود، اليهودي، اليهودية، يهود المدينة) يهود بنى قريظة، أصحاب التوراة، أهل التوراة، بنو إسرائيل، أهل الكتاب. «Ta’vilot ahl as-sunna»da ushbu din haqidagi

ma’lumotlarni 202 o‘rinda uchratish mumkin (Moturidiy, 2005-2007:241). Bundan ko‘rinadiki, yahudiylik Qur’oni karimga mos ravishda mazkur tafsirda ham eng ko‘p qayd qilingan diniy ta’limotdir. Yuqorida «Iso (a.s.) hamrohlari» (أصحاب عيسى) borasida aytilgan kabi tafsirdagi «Muso (a.s.) hamrohlari» (أصحاب موسى) haqida so‘z ketgan o‘rinlarda ham faqat Muso (a.s.) davridagi, unga imon keltirgan kishilar nazarda tutilgan. Shu bois mazkur nom maqolada yahudiylikni ifodalovchi iboralar safiga kiritilmadi.

Aytib o‘tilganidek, tafsirda yahudiylik ko‘pincha xristianlik bilan birga zikr etiladi. Bu holat, ayniqsa, aqidaviy oyatlar tafsirida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

## MUHOKAMA

Imom Moturidiy «Sajda» surasi 7-oyat tafsirida zindiqlik e’tiqodini mo‘taziliylik bilan qiyosiy tahlil qiladi:

«... Agar sizlar (mo‘taziliylar), avvalo, kufr, tuhmat va jamiki yomon amallarni Alloh taolo yaratmagan, chunki, ular qabih, zararli va ozor beruvchidir desangiz, bu bilan zindiqlar mazhabini tutgan bo‘lasiz. Buning boisi, ular Yagona Ilohdan boshqa yana bir qabih, zarar va ozor beruvchi iloh borligini aytadilar» (Moturidiy, 2005-2007:271).

Ya’ni, Moturidiy zindiqlarning: «Yomonliklarni yaratuvchi alohida iloh bor», deb hisoblashlarini aytadi. Bundan ko‘rinadiki, zindiqlik ham ezgulik va yovuzlik xudolari bor deb e’tiqod qiluvchi zardushtiylikning bir ko‘rinishi yoki shunga o‘xhash muštaqil e’tiqod bo‘lgan.

Moturidiy «Kitob at-tavhid»da ham zindiqlik e’tiqodiga bir qancha o‘rinlarda to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, ularni majusiylikka qiyoslab, shunday deydi:

«Zindiqlik yo‘nalishiga ko‘ra, olam ikkita ilohiy kuch tomonidan yaratilgan. Ulardan biri boshqasining ishlariga aralasha olmaydi. Ya’ni, ularning bu borada yaratish va boshqarish imkoniyati yo‘q. Bu ikki ilohning har biri o‘z fe’lining faqat ezgulik yoki yovuzlikdan iboratligi bilan o‘zaro farqlanadi va ular shu ishdan boshqasiga qodir emaslar. Bu kabi e’tiqod majusiylikda ham bor» (Moturidiy, 2011: 137).

Bu o‘rinda Moturidiy zindiqlik e’tiqodini majusiylikka o‘xhashligini aytgan, lekin shu bilan birga uni alohida nom bilan atagan.

Yuqoridagi misollar ushbu e’tiqodning qo‘shxudolikka asoslangan alohida diniy ta’limot bo‘lganini ko‘rsatadi. Ammo, zindiqlikning o‘ziga xos aqidaviy qarashlari haqida ma’lumotlar saqlanib

qolmagani – u haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

Tafsirning «Baqara» surasi 96-oyat tafsirida majusiylik haqida so‘z yuritilgan. Mazkur o‘rinda ularning mushriklardan ekani hamda qayta tirlish va qiyomatga imon keltirmasliklari aytib o‘tilgan (Moturidiy. 2005-2007: – J. 1. – B. 183).

«Baqara» 256-oyat tafsirida esa Moturidiy quyidagilarni aytadi:

«Alloh taoloning: لَا إِكْرَاهٌ فِي الدِّينِ» («Dinda majburlash yo‘q...») – jumlesi haqida ba’zilar aytishadiki: «Bu oyat majusiylar, yahudiylar va xristianlardan bo‘lgan ahli kitoblar haqida nozil bo‘lgan. Chunki, ulardan jizya olinadi va arab mushriklari kabi islomga majburlanmaydi. Arab mushriklari esa, islomni qabul qilmasalar qatl qilinadilar». Bunga Rasululloh (s.a.v.)dan rivoyat qilingan quyidagi hadis dalil qilib olingan bo‘lib, unda Nabi (s.a.v.) Munzir ibn Fulonga shunday shunday maktub yozgan ekanlar: «Arablarga kelsak, ulardan islomdan boshqa narsani qabul qilma. Aks holda qilich ishlat. Ahli kitob va majusiylardan bo‘lsa jizya olaver». Bu haqda Kitob (Qur’on)da ham aytildi: «O’shanda yo ular bilan urusharsiz yoki ular (jangsiz) Islomga kirurlar» (Fath surasi, 16-oyati))» (Moturidiy, 2005-2007:159).

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, majusiylar ahli shirk hisoblanishlariga qaramay ularga arab mushriklardan farqli munosabatda bo‘lingan. Bunga esa, yuqoridagi hadis dalil sifatida xizmat qilgan. Balki, shu sababdir, ularni ahli kitoblardan deb hisoblovchi toifalar ham paydo bo‘lgan. Moturidiy bunday toifalarga «Moida» surasi 5-oyat tafsirida qarshi chiqadi:

«Majusiylarni biz ahli kitoblardan deb bilmaymiz. Bunga Alloh taoloning quyidagi so‘zları dalildir:

وَهُدًى كِتَابٌ أَنزَلْنَاهُ مُبَارَكٌ فَإِنَّعُوْهُ وَاتَّقُوا لَعْلَكُمْ تُرْحَمُونَ (۵۰۱) أَنْ تَقُولُوا إِنَّا أَنْزَلْنَا الْكِتَابَ عَلَى طَائِفَتَيْنِ مِنْ قَبْلِنَا

«Mana bu Biz nozil qilgan muborak Kitob (Qur’on)dir, unga ergashingiz va taqvoli bo‘lingiz, toki rahm qilingaysiz. «Bizzdan oldingi ikki toifaga kitob nozil qilingan edi», – deyishingiz...» (An’om surasi, 155-156-oyatlar) (Abdulaziz Mansur, 2018: 149).

Bu bilan Alloh taolo ahli kitoblar ikki toifadan iboratligini aytmoqda. Shu bois ularni uch guruhga bo‘lish joiz emas. Bu Qur’on dalolat qilgan narsaga ziddir...

Majusiylar ahli kitob emasliklariga yana bir dalil shuki: Umar ibn Xattob (r.a.) Nabi (s.a.v.)ning qabrlari va minbar orasida o‘tirganlarida dedilar: «Men majusiylar borasida nima qilishni bilmayapman. Axir ular ahli kitob emaslar-ku?» Shunda Abdurrahmon

ibn Avf (r.a.) aytdilar: «Men Rosululloh (s.a.v.)ning: «Majusiylar borasida ahli kitoblarga bo‘lgani kabi yo‘l tutinglar», – deganlarini eshitganman». Umar (r.a.) ularning ahli kitobdan emasliklari haqida ochiq gapirgan va Abdurrahmon ibn Avf (r.a.) ham, boshqa biror sahoba ham u kishiga e’tiroz bildirmagan...» (Moturidiy. 2005-2007:161-162).

Bugungi kunda ham ba’zi tadqiqotchilar zardushtiylikni, ya’ni majusiylikni samoviy din, Zardushtni payg‘ambar va «Avesto»ni ilohiy kitob, degan farazni ilgari suradilar. Keyinchalik bu e’tiqod va uning muqaddas kitobi o‘zgarishlarga uchraganini aytadilar (Boboyev H., Hasanov S., 2001:20-47). «Ta’vilot ahl as-sunna»da keltirilgan dalillar bunday qarashni rad etadi.

Qur’oni karimning salmoqli qismini ahli kitoblar, ya’ni xristianlar va yahudiylarga aqidaviy masalalarda qilingan murojaatlar tashkil qiladi. Shu bois «Ta’vilot ahl as-sunna»da ham xristianlik e’tiqodi asosan turli aqidaviy bahslar yuzasidan tilga olingan. Jumladan, «Oli Imron» surasi 64-oyat:

فَلَمْ يَأْهُلْ الْكِتَابَ تَعَالَوْا إِلَى كَلِمَةٍ سَوَاءٍ بَيْنَنَا وَبَيْنُكُمْ لَا تَعْبَدُ إِلَّا اللَّهُ وَلَا نُشْرِكُ بِهِ شَيْئًا وَلَا يَتَّخِذُ بَعْضُنَا بَعْضًا أَزْبَابًا مِنْ دُونِ اللَّهِ فَإِنْ تَوَلُّوْا فَقُولُوا اشْهَدُوا بِأَنَّا مُسْلِمُونَ

«Ayting (ey, Muhammad!): «Ey, ahli kitob (yahudiylar va xristianlar), biz bilan sizning o‘rtamizda (ahamiyati) barobar bo‘lgan bir so‘zga kelingiz – yolg‘iz Allohgagina ibodat qilaylik, Unga hech narsani sherik qilmaylik va Allohnı qo‘yib bir-birlarimizni iloh qilib olmaylik!» Agar, (bu taklifdan) yuz o‘girsalar, (sizlar ularga): «Guvoх bo‘linglarki, biz musulmonlarmiz», – deb aytib qo‘yingiz!» (Abdulaziz Mansur, 2018:58) tafsirida Moturidiy quyidagilarni aytadi:

«... Biz bilan sizning o‘rtamizda (ahamiyati) barobar bo‘lgan bir so‘zga», ya’ni, adolatga kelingiz. Bu so‘z biz va sizlarning o‘rtamizdagи adolatni ta’minlasin... Ulardan ba’zilari Allohgaga ibodatda shirkka yo‘l qo‘ydilar va U Zotga boshqalarni tenglashtirdilar. Rasululloh (s.a.v.) ularni o‘zlariga ne’matlar bergen Zoldan boshqasiga ibodat qilmaslikka chaqirdilar. Chunki, ibodat – barcha (ya’ni ikki tomon ham) osmonlar va Yerning yaratuvchisi, deb bilgan Allohgagina qilinishi kerak. Ya’ni, ibodatni o‘zlariga ne’mat bergen Zod qolib, boshqalarga yo‘nalmasliklari kerak. Buning boisi, ibodat ne’mat ato etgan Zotga shukr va minnatdorchilik ifodasidir...

Adolat lug‘atda biror narsani o‘ziga munosib o‘ringa qo‘yishni anglatadi. «(Ahmiyati) barobar bo‘lgan» iborasining ma’nosи – ibodatni xolis Alloh uchun qilish va bu borada tavhidni mahkam tutish hisoblanadi» (Moturidiy, 2005-2007:324-325).

Ushbu misoldan ko‘rish mumkinki, alloma ibodat hamdaadolat tushunchalarini ahli kitoblar ham inkor etmaydigan shaklda, asosli va haqqoniy tarzda olib beradi.

Turkiyalik moturidiyshunos olim Rejeb Onal (Recep Önal) o‘zining «Moturidiy nazdida islomdan o‘zga dinlar» (Mâtürîdî’ye göre islam dışı dinler) nomli tadqiqotida Moturidiy asarlaridagi ahli kitoblarga bo‘lgan munosabat haqida batafsil to‘xtaladi. Moturidiyning ahli kitoblar bilan munozaralarini mavzuviy tarzda va asosan «Ta’vilot ahl as-sunna» tafsiridan foydalangan holda yoritib beradi (Recep Önal, 2013:55-299).

Tafsirda yahudiylilik ta’limoti va yahudiylar ham asosan turli e’tiqodiy bahslar, payg‘ambarlar, xususan Muso (a.s.) bilan bo‘lgan tarixiy voqealar, Qur’on nozil bo‘layotgan paytda musulmonlar va yahudiylamoalari o‘rtasida yuz bergan turli hodisalar yuzasidan tilga olingan. Shu sabab «Ta’vilot ahl as-sunna»da yahudiylilik tarixi, aqidasi va shariati haqida qimmatli ma’lumotlar uchratish mumkin. Jumladan, «Qof» surasi 38-oyat tafsirida yahudiylarning mashhur e’tiqodlaridan biriga to‘xtalib o‘tiladi:

وَلَكُنْدَ حَلَقْتُنَا السَّمَاءُ وَالْأَرْضَ وَمَا بَيْنَهُمَا فِي سِتَّةِ أَيَّامٍ وَمَا مَسَّنَا  
مِنْ لُعُوبٍ

«Biz osmonlar va Yerni hamda ularning o‘rtasidagi (bor) narsani olti kunda yaratdik va Bizga hech qanday charchoq yetgani yo‘q» (Abdulaziz Mansur, 2018:520).

«Alloh azza va jalla: «Biz osmonlar va Yerni hamda ularning o‘rtasidagi (bor) narsani olti kunda yaratdik va Bizga hech qanday charchoq yetgani yo‘q», – demoqda. Biz yuqorida (mufassir A’rof surasi 45-oyat tafsirini nazarda tutmoqda) osmonlar va Yerning olti kunda yaratilishi ta’viliga to‘xilib o‘tgan edik (Moturidiy, 2005-2007:372). Өмнө «Bizga hech qanday charchoq yetgani yo‘q», ya’ni holdan toyish, xorg‘inlik va zahmat. Ushbu oyatda yahudiylarning so‘zlariga ochiq raddiya va mushabbiba firqasining: ۲۰۱۳ م. ش. علی العرش: «so‘ngra Arsh uzra «mustaviy» bo‘ldi» (A’rof: 54), oyati borasidagi noto‘g‘ri qarashlari inkori hamda Alloh taolo mazkur jumla orqali iroda qilgan narsaning bayoni mavjud.

Yahudiylarning da’volari inkoriga kelsak, ular: «Alloh taolo osmonlar va Yerni olti kunda yaratdi, so‘ngra Shanba kuni dam oldi», – deyishadi va shu bois o‘zlarini ham Shanba kuni ishlamaydilar. Holbuki, Alloh azza va jalla (tafsir qilinayotgan oyatda) mazkur narsalarni yaratishda O‘ziga, yahudiylar da’vo qilgan zahmat va charchoq yetmaganini aytmoxda» (Moturidiy, 2005-2007:119).

Ushbu misolda ko‘rish mumkinki, mufassir yahudiylilik aqidasini islom aqidasi bilan qiyoslar ekan, tafsir qilinayotgan oyatni dalil sifatida keltiradi va mantiqiy bahsga kirishmaydi. Moturidiy bunday yondoshuvni odatda islomga oid firqalarga nisbatan qo‘llaydi. Chunki, islomga oid firqalar Qur’onni ilohiy kitob sifatida tan oladilar. Boshqa din vakillari bilan esa mufassir odatda aqliy-mantiqiy uslubda bahsga kirishadi. Balki, yahudiylilikning ham samoviy din ekani va ushbu din vakillarida ilohiy kitoblarga nisbatan ishonch tuyg‘usi mavjudligi Moturidiyning shunday munosabatiga sabab bo‘lgandir.

Bugun ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladigan dahriylik va mulhidlik tushunchalari o‘zaro farqli jihatlarga ega. Dahriylikda olam azaliyligiga ishonish va oxiratni inkor qilish borasidagi ta’limot asosiy o‘rinda tursa, mulhidlikda iloh tushunchasini va dinni inkor etish birlamchi o‘rinni egallaydi (Sami’ Dug‘aym, 1998:1323). Shu nuqtai nazardan bugungi kunda keng yoyilgan dinsizlikni dahriylik deb atash to‘g‘ri emas, balki uni mulhidlik, ya’ni, ateizm yoki xudosizlik deyish to‘g‘riroq bo‘ladi.

Yaqin o‘tmishda, ya’ni Sobiq Ittifoq davrida ateizmni ilmiylashtirish va ommalashtirishga jiddiy harakatlar bo‘lgani yaxshi ma’lum. Aslida, bu harakat ancha oldin G‘arbda boshlangan (Suxov A.D., 1989:5-15) va u bugun ham ko‘plab mamlakatlarda davom etmoqda. Mazkur jarayonlarning natijasi o‘laroq, aytish mumkinki, ateizm, ya’ni mulhidlik alohida e’tiqod sifatida shakllandi va dunyo miqyosida keng yoyildi. Bu haqda zamonaviy olimlardan Juhaniy quyidagilarni aytadi:

«Mulhidlik – Yaratuvchi Zotning mavjudligini inkor qilishga asoslangan falsafiy yo‘nalish bo‘lib, u nigilikistik tafakkurga tayanadi. Mulhidlar borliqning Yaratuvchi ishtirokisiz vujudga kelganini da’vo qiladilar. Ularning nazdida materiya azaliy va abadiy bo‘lib, bir vaqtning o‘zida yaratuvchi ham, yaratilmish ham uning o‘zidir. Shubha yo‘qki, bugun ko‘plab G‘arb va Sharq mamlakatlarida mulhidlikka bo‘lgan kuchli moyillik keng tarqalgan. Uni shakllantirgan omillar esa buzg‘unchi kommunizm va aldamchi dunyoviylikdir» (Juhaniy, 1997:813.).

«Ta’vilot ahl as-sunna»da ham ushbu farqlarni kuzatish mumkin. Xususan, Imom Moturidiy dahriyarning olam azaliyligini da’vo qilishlari, yo‘qdan bor qilishni, oxirat va qayta tirilishni hamda payg‘ambarlarni inkor qilishlari, shuningdek, jinlar kabi ko‘zlarini ko‘rmaydigan narsalarga ishonmasliklariga oid qarashlarini keltiradi. Jumladan, mufassir «An’om» surasining 29-oyati tafsirida quyidagilarni aytadi:

وَقَالُوا إِنْ هِيَ إِلَّا حَيَاةُ الدُّنْيَا وَمَا تَحْكُمُ بِمَبْعَثِيَنَ

«Yana: «Shu dunyo hayotidan boshqa hech narsa yo‘q. Biz (qayta) tiriltiriluvchi emasmiz», – degan bo‘lur edilar» (Abdulaziz Mansur, 2018:131).

«... Bu so‘zlarni dahriylardan deb tushunish mumkin. Chunki, ular qayta tirlishtirish va o‘limdan keyingi hayotni inkor qiladilar. Ular aytadilarki: «Darhaqiqat, bu mavjudotlar huddi o‘simpliklar kabi unib-o‘sadi va yo‘q bo‘ladi. Shu tariqa mavjudotlar o‘ladi va tuproqqa aylanadi hamda dunyodagina yashaydi». Ularning bu so‘zлari xuddi Alloh taoloning ushbu oyatidagi kabidir: «Yashaymiz va o‘lamiz; bizni dahr (vaqt, taqdir) halok qiladi...» (Moturidiy, 2005-2007:46).

Alloma dahriylarning shu kabi fikrlarini keltirgach, ular bilan o‘zlarining uslublarida, ya’ni, aqliy va mantiqiy dalillar vositasida bahs olib boradi.

Shuningdek, Imom Moturidiy «Ankabut» surasi 64-oyat tafsirida mulhidlarining ba’zi qarashlariga to‘xtalib o‘tadi:

وَمَا هَذِهِ الْحَيَاةُ الدُّنْيَا إِلَّا كُفُوٌّ وَاعْبُوثٌ وَإِنَّ الدَّارَ الْآخِرَةَ لَهُيَ الْحَيَاةُ  
لَوْ كَانُوا يَعْلَمُونَ

«Bu dunyo hayoti faqat (ozgina) o‘yin-kulgidir. Agar, ular bilsalar, oxirat diyorigina (haqiqiy) hayot (joyi)dir» (Abdulaziz Mansur, 2018:404).

«Alloh taoloning: «Bu dunyo hayoti faqat (ozgina) o‘yin-kulgidir» – jumlesi: «Bilingizki, bu dunyo hayoti faqat o‘yin, behudalik, ziynat, o‘zaro faxrlanish va mol-dunyo hamda farzandlarni ko‘paytirishdan iboratdir» (Hadid surasi, 20-oyat) – oyati kabi bo‘lib, asl haqiqat – ba’zi insonlar aytgani hamda Qur‘on zohiridan tushunilgani singari: hayotning asosi hech qanday ma’no-mantiqsiz va hikmatsiz emas. Ayniqsa, mulhidlar bu borada ta’na qilib: «Alloh taolo: «Bu dunyo hayoti faqat (ozgina) o‘yin-kulgidir», – deb aytadi, shunday ekan, hayotni nega behuda va o‘yin uchun yaratgan?» – deyishadi. Shuningdek, ular yuqoridagi oyatlar bilan quyidagi oyatlar orasida ziddiyat bor deyishadi:

وَمَا خَلَقْنَا السَّمَاءَ وَالْأَرْضَ وَمَا بَيْنَهُمَا بِاطِّلَالٍ

«Biz Osmon va Yerni hamda ularning o‘rtasidagi bor narsalarni shunchaki behuda yaratgan emasmiz» (Sod surasi, 27-oyat);

وَمَا خَلَقْنَا السَّمَاءَ وَالْأَرْضَ وَمَا بَيْنَهُمَا لَا عَيْنٌ

«Biz Osmon va Yerni hamda ularning orasidagi narsalarni (shunchaki) o‘ynab (behuda) yaratganimiz yo‘q» (Anbiyo surasi, 16-oyat).

Ushbu ikki oyat va yuqoridagi oyatlar o‘zaro jamlansa zohiran qarama-qarshilik bordek ko‘rinadi.

Ya’ni, Alloh taolo ba’zi oyatlarda Osmon va Yer hamda ular o‘rtasidagi narsalarni behuda va o‘yin uchun yaratmaganini aytsa, boshqa oyatlarda dunyo hayoti faqat o‘yin-kulgudan iboratligini aytadi. Lekin, aslida, bu oyatlarning ta’vili quyidagicha bo‘ladi:

«Bu dunyo hayoti sizning (mulhidlarga qarata) va siz kabilarning nazdingizda faqat o‘yin-kulgidir. Ammo, tavhid egalari nazdida u hikmat va haqiqatdan iboratdir» (Moturidiy, 2005-2007:143-144).

Yuqoridagi va mulhidlar haqida so‘z yuritilgan boshqa oyatlar tafsirlarini o‘zaro solishtirgan holda shuni aytish mumkinki, mulhidlar xuddi bugungi kun dinsizlari va ateistlari kabi dinga, islomga nisbatan shubha uyg‘otishga, keyin shu asosda uni inkor qilishga harakat qiladilar.

Shuningdek, tafsirdagi ba’zi o‘rinlarda mulhid atamasi islomga nisbatan shubha bilan qarovchi barcha e’tiqod vakillariga nisbatan umumi nom sifatida qo‘llanilgan (Moturidiy, 2005-2007:238).

## XULOSA

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Moturidiy turli din va e’tiqodlar haqida so‘z yuritar ekan, ularning ta’limotlari tahliliga chuqur kirishib ketmaydi, balki tafsir qilinayotgan oyatga aloqador qarashlarigagina to‘xtaladi. Bu bilan asar mazmuniga, ya’ni tafsir ilmi uslubiga muvofiqlikni saqlaydi.

Alloma o‘z davridagi musulmon jamoalari va boshqa e’tiqod vakillari o‘rtasida mavjud bo‘lgan aqidaviy bahslarni keltirar va ularga bo‘lgan o‘z munosabatini bayon qilar ekan, har ikki tomon ham birdek qabul qila oladigan ma’lumotlarga e’tibor qaratadi. Qarshi tomonning dalillarini ham yashirmsandan bayon qiladi hamda ilmiy bahs mezonlariga to‘liq rioya qiladi.

«Ta’vilot ahl as-sunna»da jami 16 ta noislomiy e’tiqodlar tilga olingan. Ular ichida ahli kitoblar, ya’ni yahudiylar va xristianlar hamda Makka mushriklari haqida ko‘proq to‘xtalingan. Shuningdek, tafsirda o’sha davrda mavjud bo‘lgan boshqa diniy-falsafiy ta’limotlar borasida ham nodir ma’lumotlarni uchratish mumkin.

## MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulqodir Shayba. (2012). al-Adyon val-firoq val-mazahib al-mu‘osira. Ar-Riyod: Maktaba Fahd al-vataniya.
2. Abdulqohir Bag‘dodiy. (1988) al-Farq bayna-l-firoq. Qohira: Maktaba Ibn Sino.
3. Abul Muin Nasafiy. (2011) Tabsiratu-l-adilla / Muhammad Anvar Homid Iso tahqiqi. J. 1-2. Qohira: al-Maktaba al-azhariya li-t-turos.
4. Abul Muzaffar Isfaroyiniy. (1983) at-Tabsir fi-d-din. Beirut: Olam al-kutub.

5. Abulfath ibn Abdulkarim Shahristoniy. (2000) al-Milal va-n-nihal. Bayrut: al-Maktaba al-asriya.
6. Abullays Samarqandiy. (1993) Bahru-l-ulum. J. 1. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya.
7. Ahmad ibn Hanbal. (2003) ar-Radd ala-l-jahmiya vaz-zanadiqa / Sobriy Saloma Shohin tahriri. Ar-Riyod: Dor as-sabot lin-nashr vat-tavzi'.
8. Ahmad Shibliy. (2002) Muqorana al-adyon. J. 2. Qohira: Maktaba an-nahda al-misriya.
9. Boboyev H., Hasanov S. (2001) «Avesto» – ma'naviyati-miz sarchashmasi. Toshkent: Adolat.
10. Faxriddin Roziy. (1982) E'tiqodot firoq al-muslimin val-mushrikin. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya.
11. Hasanov A. (2001) Qadimgi Arabiston va ilk islom. Johiliya asri. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
12. Ibn Jarir Tabariy. (1994) Tafsir at-Tabariy. J. 6. Bayrut. Muassasa ar-risola.
13. Ibn Hazm Andalusiy. (2016). al-Fisol. J. 2. Maktaba as-salam al-olami.
14. Ibn Kasir. (1998) Tafsiru al-Qur'onu al-azim. Bayrut: Dor toyyiba lin-nashr vat-tavzi'. J. 6.
15. Ibn Xoldun. (2004) Muqaddima. J. 2. Damashq: Dor Ya'ruba.
16. Islom ensiklopediyasi. (2004) Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.
17. Gunnar Skirbekk. (2002) Nils Gilye. Falsafa tarixi. Toshkent: Sharq.
18. Moni' ibn Hammud Juhaniy. (1997) al-Mawsua al-muyassara. J. 1-2. Ar-Riyod: Dor an-nadva.
19. Abu Mansur Moturidiy. (2011). Kitobu-t-tawhid / Bakr To'pal o'g'li va Muhammad Aruchi tahriri ostida. Bayrut: Dor as-sadr, Istanbul: Irshod.
20. Moturidiy. Ta'vilot ahl as-sunna / Bakr To'pal o'g'li tahriri ostida. J. 1-18. Istanbul: Dor al-miyzon, 2005-2007.
21. Muhammad Abu Zahra. (2007). Tarix al-mazahib al-islamiy. Qohira: Dor al-fikr.
22. Recep Önal. (2013). Mâtürîdî'ye göre islam dışı dinler / doktora tezi. Ocak: Sakarya üniversitesi Sosyal bilimler enstitüsü.
23. Sami' Dug'aym. (1998). Mawsua mustalahot ilm al-kalom al-islomiy. J. 2. Bayrut: Maktaba Lubnan nashirun.
24. Suxov A.D. (1989). Ateisticheskiye traditsii v russkoy filosofii. Moskva: Znaniye.
25. Talip Özdeş. (2003). Maturidi'nin tefsir anlayışı. Istanbul: İnsan yayınları.
5. Abulfath ibn Abdulkarim Shahristani. (2000). al-Milal wa-n-nihal. Vol. 1-2. Beirut: al-Maktaba al-asriya.
6. Abullaith Samarkandi. (1993). Bahru-l-Ulum. Vol. 1. Beirut: Dar al-kutub al-ilmiya.
7. Ahmad ibn Hanbal. (2003). ar-Radd 'ala-l-jahmiya waz-zanadiqa / edited by Sabri Salama Shahin. Ar-Riyadh: Dar as-sabat lin-nashr wat-tawzi'.
8. Ahmad Shibli. (2002). Muqorana al-adyan. Vol. 2. Cairo: Maktaba an-nahda al-misriya.
9. Boboyev H., Hasanov S. (2001). «Avesta» - the confusion of our spirituality. Tashkent: Adolat.
10. Encyclopedia of Islam. (2004). Tashkent: «National Encyclopedia of Uzbekistan» State Scientific Publishing House.
11. Fakhruddin Radi. (1982). I'tiqadat firaq al-muslimin wal-mushrikin. Beirut: Dar al-kutub al-ilmiya.
12. Hasanov A. (2001). Qadimgi Arabiston va ilk islom. Tashkent: Tashkent Islamic University.
13. Ibn Hazm Andalusiy. (2016). al-Fasl. Maktaba al-salam al-alamiy. Vol. 2.
14. Ibn Jarir Tabari. (1994). Tafsir al-Tabari. Vol. 6. Beirut. Muassasa ar-risola.
15. Ibn Kathir. (1998). Tafsir al-Qur'an al-azim. Vol. 6. Beirut: Dar tayyiba lin-nashr wat-tavzi'.
16. Ibn Khaldun. (2004). Muqaddama. Vol. 2. Damascus: Dar Ya'ruba.
17. Gunnar Skirbeck. (2002). Nils Guille. History of philosophy. Tashkent: Sharq.
18. Maturidi. (2011). Kitabu-t-tawhid / edited by Bakr Topaloglu and Muhammad Aruchi. Beirut: Dar al-Sadr, Istanbul: Irshad.
19. Maturidi. (2005-2007). Ta'wilat ahli-s-sunna / edited by Bakr Topaloglu. Istanbul: Dar al-mizan. Vol. 1-18.
20. Mani' ibn Hammud Juhani. (1997). al-Mawsua al-Muyassara. Vol. 1-2. Riyadh: Dar an-nadwa.
21. Muhammad Abu Zahra. (2007). Tarikh al-madhab al-Islami. Cairo: Dar al-fikr.
22. Recep Önal. (2013). Mâtürîdî'ye göre islam dışı dinler / doktora tezi. Ocak: Sakarya üniversitesi Sosyal bilimler enstitüsü.
23. Sami Dugaim. (1998). Mawsua mustalahat ilm al-kalam al-Islami. Vol. 2. Beirut: Maktaba Lubnan Nashirun.
24. Suxov A.D. (1989). Ateisticheskiye traditsii v russkoy filosofii. Moscow: Znaniye.
25. Talip Özdeş. (2003). Maturidi'nin tefsir anlayışı. Istanbul: İnsan yayınları. Istanbul: İnsan yayınları.

#### REFERENCES

1. Abdulqadir Shayba. (2012). al-Adyan wal-firaq wal-mazahib al-mu'asira. Riyadh: Maktaba Fahd al-wataniya.
2. Abdulqahir Baghadi. (1988). al-Farq bayna-l-firaq. Cairo: Maktaba Ibn Sina.
3. Abul Muin Nasafi. (2011). Tabsirat al-Adilla / edited by Muhammad Anwar Hamid Isa. Vol. 1-2. Cairo: al-Maktaba al-azhariya li-t-turath.
4. Abul Muzaffar Isfarayini. (1983). al-Tabsir fi-d-din. Beirut: Alam al-kutub.



**ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ  
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНинг  
«МОТУРИДИЙЛИК» ЖУРНАЛИ**

Мазкур нашр олий ўкув юрглари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг профессор-ўқитувчилари, докторантлари,  
мустакил тадқиқотчилари, магистрантлари,  
талабалари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Тахририят фикри муаллиф нуқтаи назари билан бир хил бўлмаслиги мумкин.  
Журналдан кўчирма олинганда манба қайд этилиши шарт.

# MOTURIDIYLIK

**The Maturidiyya - الماتریدیة - Матуридизм**

4/2023

*Бош мұхаррір:* **Ж.Каримов**

*Мұхаррір:* **З.Фахриддинов**

*Нашр учун масъул:* **З.Арслонов**

*Чет тилларидаги матнлар мұхарріри:* **О.Сотвоздиев**

*Дизайнер-саҳифаловчи:* **З.Ғуломов**

**Манзилимиз:** Ўзбекистон халқаро ислом академияси Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази,  
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.

**Тел:** (+99871) 244-35-47, (+99871) 244-35-36. **Web:** [www.maturidijournal.uz](http://www.maturidijournal.uz)  
**E-mail:** [info@moturidiyuz](mailto:info@moturidiyuz)

Нашриётнинг лицензия рақами AI № 0011. 06.05.2019 йил.  
Босишига 28.12.2023 йил рухсат этилди. Бичими  $60 \times 84 \%$ .  
Ризограф усулда босилди. Шартли босма табоғи 10,2.  
Нашр табоғи 10,4. Буюртма № 20.  
Баҳоси шартнома асосида.

«Ўзбекистон халқаро ислом академияси»  
нашриёт-матбаа бирлашмаси босмахонасида чоп этилди.  
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.



**IMOM MOTURIDIY**

XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CENTER

المركز الدولي للبحوث العلمية